

## PROBLEMS OF QUALITY MANAGEMENT AND METHODOLOGY OF MEDICAL CARE IN MODERN HEALTH CARE

**Kamalov Anvar Ibragimovich, PhD**  
**Samarkand State Medical University**

### **Annotation**

The quality of medical care is considered one of the main conditions for the development of local health care, unfortunately, only a small number of scientific publications are devoted to this issue in our state. Some foreign authors have interpreted the concept of quality, evaluation criteria, and ways to improve it in different ways. When applied to medicine, "the quality of medical care consists of multiple descriptions confirming compliance with the medical care provided to the patient's existing needs, with the modern level of medical development". In many modern studies, it is noted that the quality of medical care provided to a woman is the main factor determining the consequences of pregnancy and childbirth. From this it is worth saying that the quality is directed not to the doctor, but to the patient and the satisfaction of the medical care provided to him.

**Key words:** Medical care, health care, patient.

Ko'pchilik mualliflar ko'p omilli muammo sifatida sifat tavsifida samaradorlikni, xavfsizlikni, o'z vaqtida ko'rsatilishni, mavjudlikni, muvofiqlikni, izchillikni, qanoat hosil qilishlikni, jarayonning samarasi va doimiy takomillashuvini hamda natijani yaxshilashni qayd etishadi. Ammo, o'rganish jarayonida shu holat tushunarli bo'ldiki, sifatni baholashdan ham sifatni boshqarish yoki sifat menejmentining tahlili muhimroq hisoblanadi. Shu holat aniq bo'ladiki, bizning sifat haqidagi zamonaviy qarashlarimiz dunyo standartlaridan anchagina orqada qolmoqda, va, mohiyatan, bizning asosiy harakatimiz hanuzgacha baholash, uning ekspertizasi va tibbiy yordam sifatini nazorat qilishga qaratilmoqda. Sifat boshqaruvini amalga oshirish zamonaviy va dalillarga asoslangan tibbiy texnologiyalarni, tibbiy standartlarni, klinik qo'llanma va mahalliy klinik bayonnomalarni tadbiiq etish, shifokorlarni litsenziyalash va tibbiy muassasalarni akkreditatsiyadan o'tkazish, shuningdek, tibbiy yordam sifatini doimiy nazorat



qilish va monitoringini o'tkazish bilan birga tibbiy xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish yo'li bilan o'tkazilishi lozim. Ushbu ishning asosida ISO va dalillarga asoslangan tibbiyotning tavsiyalari yotishi lozim. Faqatgina shunday yondashuv shifokorlarning yo'l qo'yadigan xatoliklar ehtimolini kamaytirishi va bemorlarning qanoat hosil qilish holatlarini oshirishi mumkin. Sifat boshqaruvining asosiy maqsadi ISO 9000 standartlariga muvofiq ravishda barcha manfaatdor tomonlar: iste'molchi, ya'ni bemorning, xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni tibbiy tashkilotlar, jamoat va umuman davlatning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Mazkur standartlar TQM (Total Quality Management - «sifatning umumiy boshqaruvi») kontseptsiyasiga yo'naltirilgan bo'lib, dunyoning ko'pgina davlatlarida qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda sifat menejmentining besh yuz mingdan ortiq tizimlari, shu jumladan tibbiyotda ham sertifikatlangan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bir qator qonunlarga asoslangan tibbiy yordam sifat nazoratining davlat tomonidan boshqaruviga asosiy e'tibor saqlanib qolmoqda. TYoSni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy tadqiqotlarning natijalariga ko'ra hozirgi vaqtda ayniqsa zarur, ushbu ijtimoiy tadqiqotlar tibbiy yordam sifatining mavjudligi va qoniqish hosil bo'lishining yetarli darajada emasligi haqida dalolat beradi. Afsuski, mavjud adabiyotda shifokorlik etikasi va deontologiyasining buzilishi, tibbiy yordam sifati va uni ko'rsatishni rad etish bilan bog'liq bo'lgan ishni yomon tashkil etish natijasida kelib chiqqan tibbiy yordam ko'rsatishning qoniqarsiz sharoitlari bilan bog'liq bemorlarning shikoyatlari tahlilini topmadik. Sifat darajasi qoniqarsiz bo'lgan tibbiy yordam sabablarining tahlili deyarli o'tkazilmagan. Masalan, sog'liqni saqlash tizimidagi qiyinchiliklar, boshqaruvning turli darajalarida to'g'ri boshqaruvning noaniqligi, shifokorlik jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi noto'g'ri taqsimot qilinishi, ularning faoliyatini nazorat qilmaslik, kabi xolatlar. Xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy muammolar sog'liqni saqlash tizimining barcha elementlari nomuvofiqligining sababi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, tibbiy yordamning tegishli sifati qator hollarda tibbiyotning nomukammal texnologik imkoniyatlari oqibatida ko'rsatilmaligi mumkin. Bemorning umidlari va



ishonchi bilan hayotning haqiqati orasidagi bunday nomuvofiqlik ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Ko'pgina yillar mobaynida tibbiy yordamning sifat mezonlari va ularni baholash usullari haqidagi masalalar ishlab chiqilmoqda. Qator mualliflar mezonlarga qoniqish hosil qilish, mavjudlik, maqbullik va xavfsizlik singari TYoSning tavsiflarini kiritishgan. Ta'kidlanishicha, mavjud mezonlar ta'rifda va baholashda bir xil ma'noni bildirmaydi, bir-biri bilan bog'liqligi kam, umumiy qabul qilingan bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi bilan umuman bog'liq emas, ko'pgina patologik holatlarda va turli tibbiy tashkilotlarda tibbiy yordam sifatini baholashga yagona yondashuv esa mavjud emas. Shu sababli nazorat haqida, va, ayniqsa sifatni ta'minlash haqida gapirish juda qiyin. Amaliyotda TYoSni baholash TYoSning mezonlari, tibbiy yordam standartlari, TYoS indikatorlari, shuningdek TYoSni baholashning ekspert usullari asosida o'tkaziladi. Bundan tashqari, dunyoda TYoSning bevosita miqdoriy baholash metodikasi– tashxisot va davolash sifatini baholash, oxirgi natijalar modellari asosida baholash metodikasi, ijtimoiy so'rovlar asosida bemorlarning qanoatganligini baholash metodikasi, shuningdek TYoS ekspertizasining yagona informatsion-analitik texnologiyasi ko'rinishida tanlangan TYoS ekspertizasining avtomatlashtirilgan texnologiyasi keng qo'llaniladi. Ba'zi tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, TYoSni nazorati bo'yicha olib borilgan barcha chora-tadbirlar uning sifatining yaxshilanishiga olib kelmaydi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, TYoSni ta'minlashning ishonchli tizimisiz tibbiy xizmat ko'rsatish sifatiga erishib bo'lmaydi. Sifat boshqaruvining tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: sifat boshqaruvining uzluksizligi, dalillarga asoslangan tibbiyotning qo'llanilishi, tibbiy standartlar asosida TYoS ekspertizasini o'tkazish, taqqoslanadigan natijalarni olish uchun ekspertizaning o'tkazilishida yondashuvlarning yaxlitligi, TYoS boshqaruvi uchun iqtisodiy va huquqiy usullarning qo'llanilishi, TYoS boshqaruvi tizimining monitoringi, TYoSning maqbul darajasiga erishish uchun xarajatlarning iqtisodiy samarasining tahlili, TYoS masalalari bo'yicha ijtimoiy fikrlarni o'rganish. TYoS boshqaruvining eng istiqbolli



modeli bo'lib "sifatning umumiy boshqaruvi" negizlari asosida yaratilgan industrial model hisoblanadi (TQM - Total Quality Management).

Bunday sifatni ta'minlash tizimining yaratilishi qator tashkiliy tadbirlarning o'tkazilishini talab etadi, bu tadbirlar tibbiy muassasalarda maxsus tuzilmaviy bo'linmalarni shakllantirish, TYoS nazorati va boshqaruvi bo'yicha faoliyatni normativ tartibga solish, uning holati haqida ma'lumotlarni yig'ish uchun nazorat usullarini qo'llash, TYoS boshqaruvining informatsion ta'minoti uchun dasturiy vositalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. 9000 seriyadagi ISO xalqaro standartlariga muvofiq ravishda metodologik ta'minot va tibbiy yordam sifatini boshqarish sifat menejmentining quyidagi tamoyillariga asoslanishi lozim: iste'molchiga yo'naltirish, rahbarning yetakchiligi, xodimlarni jalb etish, jarayonli yondashuv, menejmentga tizimli yondashuv, doimiy yaxshilanish, faktlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish, ta'minotchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish.

Tibbiy yordam sifatining menejmenti samarasini baholashning mavjud usullari ichida boshqaruvning asosiy jarayoni deb sifat koeffitsientini, bemorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida alohida parametrlar dinamikasini o'rganishni, moddiy-texnika bazasi va uning tashkil etilishining tavsifini, shuningdek, TYoSni ichki va tashqi ekspertizasi natijalari asosida sifat ko'rsatkichlarini kompleksli baholashni hisoblash lozim.

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Лахно И. В. Управление системой гемостаза у беременных с преэклампсией: фокус на акушерских кровотечениях // Медицина неотложных состояний. – 2012. – №. 3 (42).
2. Орлов, А.Е. Новые организационные подходы к управлению качеством медицинской помощи / Актуальные вопросы здравоохранения и медицинского образования. Сборник материалов конференции, посвященной памяти проф. И.П. Полякова / Под ред. проф. Н.Г. Петровой – СПб – 2014. – С. 128-129.



3. Петрова, Н.Г. Основы медицинского менеджмента и маркетинга / Н.Г. Петрова, И.В. Додонова, С.Г. Погосян // СПб – Фолиант – 2013
4. Alimjanovich JR, Agababayan LR, Kamalov AI. Prevention and Treatment of Postpartum Hemorrhage. Central Asian Journal of Medical and Natural Science. 2021 Aug 28;2(4):204-9.
5. Rizayev JA, Agababayan LR, Kamalov AI. Ayollarda tug‘ruqdan keyingi qon ketishlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining monitoringini tashkil etish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021;1(10):166-78.
6. Nugmanovna MA. ETHICAL PROBLEMS OF NEW REPRODUCTIVE TECHNOLOGIES. Miasto Przyszłości. 2024 Apr 19:9-12.
7. Rubenovna AL, Ibragimovich KA. The efficacy of different methods of haemostasis for postpartum haemorrhage. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021 Jan 28:134-9.
8. Kamalov A. UYGHURS IN SOVIET CENTRAL ASIA AND THEIR TRANSFORMATION DURING PERESTROIKA. Himalayan and Central Asian Studies. 2020;24(1/2):70-0\_4.
9. Махмудова АН. Правовая защита пациентов в сфере здравоохранения в новом Узбекистане. Academic research in educational sciences. 2022(1):102-7.
10. Nugmanovna MA. THE MEANING OF BIOETHICS IN THE SITUATION OF MODERN ANTHROPOLOGICAL CRISIS. Journal of new century innovations. 2024 Apr 18;51(2):81-4.
11. Nugmanovna MA, Zukhrabonu K, Mdinabonu S. Legal Protection of Minor Children in the Modern Society. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. 2024 Feb 26;3(2):952-9.
12. Кочетова ЮЮ, Маслова ЭВ, Махмудова АН. ПРИМЕНЕНИЕ ПЛАЦЕБО В БИМЕДИЦИНСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ И КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ЭТИЧЕСКИЕ ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ: УДК 614.253: 615.039: 616-092.4: 001.891. 5. Межкультурная коммуникация в образовании и медицине. 2024 Apr 10(1):28-31